

FUQAROLARGA BUG'DOY, SOMON VA TAKRORIY EKIN UCHUN YERLAR BERILMOQDA



"Inson qadri uchun" tamoyili asosida odamlarni rozi qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Tuman prokurori, 2-sektor rahbari Ilhomjon Xodjayev tashabbusi bilan Guliston MMTP hududidagi "Aqrab oylar durdonasi" fermer xo'jaligida sektor hududidagi Soybo'yi va Guliston mahalla fuqarolar yig'inidagi 70 nafar "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar" larga ro'yxatga olingan fuqarolar, ishsiz hamda ehtiyojmand oilalar va fermer xo'jaligi a'zolariga 100 kgdan bug'doy, 20 tadan somon hamda 20 sotixdan takroriy ekin ekish uchun bug'doydan bo'shagan yer maydonlari ajratib berildi.

Yurtimizda hamisha o'zaro mehr-oqibat, saxovat, azaliy qadriyatlarimizni e'zozlash kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar ulug'lanib kelingan. Ehtiyojmand kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila va mahallalarda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yoshi ulug' insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda ham bu kabi ezgu ishlar davom etmoqda.

Xususan, ayni paytda saxovatli fermerlarimiz tomonidan hududlardagi ehtiyojmand insonlar hamda xo'jalik a'zolariga bug'doy, somon va takroriy ekin ekish uchun bug'doydan bo'shagan yerlar berilmoqda.

Fermer xo'jaligi tomonidan mazkur yer maydonlari somondan tozalanib, ekin ekishga tayyorlab berildi. Fuqarolarga takroriy ekin uchun berilgan yerlardan unumli foydalanib, yaxshi mahsulot yetishtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-06-26 18:37:38